



THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF YOUTH SOCIAL ACTIVITY

Arabjon Fayozov
master's student
Fergana state university
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Globalization, society, socio-spiritual, socio-political, intellectual-cultural, normative-legal, spiritual-enlightenment, spiritual-moral, physically fit, harmoniously developed generation, patriotism, honesty, morality, happiness, social incentives.

Received: 28.06.22

Accepted: 30.06.22

Published: 02.07.22

Abstract: The article reveals a theoretical method for increasing the social activity of young people based on the rich intellectual and cultural heritage and universal values of our people, the development and improvement of their spiritual and moral qualities. In the process of forming young people as individuals, social activity in society, as social interactions and relationships, the satisfaction of their needs, is closely related to the laws of development and regulation in social unity.

YOSHLARNING IJTIMOYIY FAOLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Arabjon Fayozov
magistrant
Farg'ona davlat universiteti
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Globallashuv, jamiyat, ijtimoiy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, intellektual-madaniy, me'yor-xuquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy, jismonan barkamol, barkamol avlod, vatanparvarlik, insof, axloq, baxt-sodat, sotsial rag'bat-jazo.

Annotatsiya: Maqolada xalqimizning boy intellektual-madaniy merosi va umumbashariy qadriyatlarini asosida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, va ularning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini yuksaltirish va rivojlantirishning nazariy metodologiyasi ochib berilgan. Yoshlarning shaxs bo'lib shakllanish jarayonida, jamiyatda ijtimoiy faol bo'lishi, sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlari sifatida, ularning ehtiyojlarini qondirilishi, sotsial birlikda rivojlanish va tartibga solish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Арабжон Фаёзов

магистр

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Глобализация, общество, социально-духовное, социально-политическое, интеллектуально-культурное, нормативно-правовое, духовно-просветительское, духовно-нравственное, физически здоровое, гармонично развитое поколение, патриотизм, честность, этика, счастье, социальные стимулы.

Аннотация: В статье раскрывается теоретическая методика повышения социальной активности молодежи на основе богатого интеллектуального и культурного наследия и общечеловеческих ценностей нашего народа, развития и совершенствования их духовно-нравственных качеств. В процессе формирования молодежи как личности социальная активность в обществе, как социальные взаимодействия и отношения, удовлетворение их потребностей, тесно связана с законами развития и регуляции в социальном единстве.

KIRISH

Jahonda globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda jamiyat hayotining barqarorligini ta'minlash va demokratik qadriyatlarni qaror topishida yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish muhim bo'lib bormoqda. Zero, yoshlarning ijtimoiy faolligining o'sishi nafaqat insoniyat taraqqiyot darajasini, balki innovatsion muhitda dunyo xalqlarining ma'naviy dunyosini shakllantirishda alohida o'rin egallaydi. Shu boisdan ham, bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bilan bog'liq yangicha pragmatik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish hamda uni ro'yobga chiqarish yo'llarini takomillashtirib borish obyektiv ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yoshlarning ijtimoiylashuvini ta'minlash, ma'naviy-intellektual qadriyatlar tizimini yuksaltirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning faol harakat komponentlari klassifikatsiyasini ishlab chiqishga doir ilmiy izlanishlar yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. Shu bilan birga, milliy manfaatlar tizimidan kelib chiqqan holda yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning xalqaro standartlarini joriy etish hamda yoshlar hayotiy faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini belgilash darajasining ijtimoiy jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Respublikamizda xalqimizning boy intellektual-madaniy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini yuksaltirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. "Biz yoshlarga doir

davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat‘iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1]. Bunday vazifalarni amalga oshirishda eng avvalo, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning yangicha dunyoqarashini shakllantirishning usul-vositalari, mexanizmlari hamda qonuniyatlarini takomillashtirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Bu borada mamlakatimizda me‘yoriy-huquqiy mexanizm yaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son “Ma‘naviy ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar yoshlarning jamiyatga integratsiyasini ta‘minlab beradi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi masalasiga barcha davrlarda alohida e‘tibor qaratilgan. Masalan, yunon faylasufi Suqrot jamiyatning eng katta muammosi yoshlarning ongi va ularning axloqida jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalashdan iborat deb bilgan. Shuningdek inson faoliyati uning yaxshilik, savob, oriyat, insof haqidagi tushunchalari mazmunidan iborat bo‘lib, bu tushunchalarni shaxs qanday tushinishi katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, inson faoliyatini yaxshilash uchun uning fe‘l-atvori va tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari, tushunchalarini tartibga solish zarurdir, deb ta‘kidlagan. Arastuning baxt-saodat keltiruvchi insoniy xislatlarni o‘zida yaxlit holda aks ettiruvchi aqliy fazilatlar yaxshi xulq-odatlardir[2], degan g‘oyasi yoshlarning axloqiy tarbiyasida bilimning qadriyatli mo‘ljallarini to‘g‘ri belgilashni taqozo etadi.

Aristotel insonning ijtimoiy faolligi ijtimoiy jarayonlardagi faolligi bilan belgilab, ijtimoiy jarayon, imkoniyatlardan natijalarga o‘tishga bo‘lgan intilishdir, deb baholagan. Kishilar ijtimoiy jarayonda qancha ko‘p ishtirok etsalar davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy asoslari shunchalik

mustahkamlanib boradi. Kishilarning ijtimoiy jarayonlarda yakdil va ommaviy ishtiroki adolat, insof, sadoqat singari tushunchalarga ega bo'lgan umumiy qarashlarni tarkib toptiradi, deb ta'kidlab, yoshlarning ijtimoiy jarayonlarda faol bo'lishi jamiyatni mustahkamlash asosi sifatida qaraydi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ahamiyati to'g'risida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, va boshqa mutafakkirlar[3] ijodida ham yetarlicha yoritib berilgan. Xususan, Beruniy Markaziy Osiyodagina emas, balki umuman Sharqda, jahon fani va madaniyati tarixida ham eng ulug' va buyuk mutafakkirlardan hisoblanadi. U o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar», «Minerologiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. «Minerologiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, yerdagi burchi, olijanoblighi, jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

Yoshlarning ijtimoiy faolliqi masalalarini tahlil qilishda xorijlik olimlar individning shaxs bo'lib shakllanishi jarayoni bilan bog'lagan. Shaxs sotsial nazariyalarining rivojida XX asrning 20 yillarida AQShda vujudga kelgan bixevioral (inglizcha behaviour — xulq-atvor) yo'nalish alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asoschisi amerikalik psixolog Jon Uotson (1878-1958) hisoblanadi[4]. Bixevioral nazariyaning asosida insoniyat va hayvonot dunyosini tashqi muhit ta'sirlariga xatti-harakat, hissiyotli va aqliy aks ta'sir yig'indisi sifatida qabul qilish yotadi. Bixevioral nazariyotchilar ta'kidlashicha ongni emas, xulqni o'rganish zarur. Bunda kuzatuv metodidan foydalanish ayni muddao sanaladi. Bixeviorizm vakillari sotsial xatti-harakat insonning sotsial muhitga moslashish vositasidir, deb ta'riflaydilar. Inson xulqida uning ruhiy holati va tanasining psixobiologik xususiyatlari o'z aksini topadi. Zamonaviy bixeviorizm shaxslararo va jamoaviy xulq-atvorning qadriyatli-me'yoriy jihatlarini shakllanish mexanizmlarini alohida o'rganadi.

B.Skinner (1904-1990) bixeviorial yo'nalishning fundamental asosi bo'lgan va individ xulq-atvori asosida yotuvchi shartli stimullarni ilmiy asoslab beradi. Shartli stimullar sotsiomadaniy xususiyatga ega bo'lib; sotsial rag'bat-jazo, ta'limdagi o'zlashtirish-o'zlashtira olmaslik, hayotda ustunlikni ta'minlovchi pul, tilyog'malik-maqtov, e'tibor, yutuq, boshqalarni buysundirish, bog'liqlik kabi insonning xulq atvorining turli motivlarni izohlovchi asosiy sotsial faktlar sifatida qabul qilinadi. Bixeviorizmga ko'ra, bola tug'ilganda hayotga umuman moslashmagan bo'ladi va ijtimoiylashuv jarayonida undagi xulqning «nisbatan murakkab repertuari» shakllanib boraveradi.

Ushbu nazariyada muhim kategoriyalardan biri hisoblangan ichki va tashqi faollik – «reaktsiya (aks ta'sir)» sifatida talqin etilgan. Bunda S – R chizmasi yaratilib, unga ko'ra S-inson hulq-atvorini shakllantiruvchi stimullar (turtki) lar, R-unga nisbatan reaksiya-aks ta'sirdir. Reaksiyaning xususiyatini stimullar belgilab beradi. Bu bixeviorizmning mohiyatini tashkil qiluvchi tushunchalar hisoblanadi. Vazifadan kelib chiqib stimullarni o'zgartirish va kishilar xatti-harakatni boshqarish mumkin.

E'tiborlisi, omadli reaksiya stimullarda muqim o'mashib qoladi va qayta ishlab chiqarilaveradi. Bu g'oya «effekt qonuni» deb nomlangan san'at sohasi va sotsial pedagogikada o'z aksini topdi. Bunga ko'ra, san'atkorning erishgan yutuqlari oldingi tajribasi bilan bog'liq bo'lib, omadli sahna chiqishi keyingilariga turki beradi. Reaksiyalarning mustahkamlanishi «mashq qonuni»ga bo'ysundirilgan bo'lib, bunga ko'ra, bir xil stimullarga aks ta'sirning ko'plab takrorlanishi natijasida bu reaksiyalar avtomatik ko'rinishga ega bo'ladi. Bu nazariya «sinov va xato» usuliga tayanadi. Zaruriy reaksiyani ishlab chiqish uchun ko'plab sinovlardan o'tiladi va oxir-oqibatda ulardan biri kerakli effektga olib keladi. Keyinchalik boshqa bixeviorial oqim vakillari tomonidan xulq-atvorning S-R chizmasiga asoslanmasligi to'g'risidagi farazlar ilgari suriladi. Yoqimli oqibatlar – hissiy va xulq-atvorli qayta reaksiyalarga turtki bo'ladi. unga ko'ra, inson xulq-atvorni tanlamaydi, aksincha, ehtimoliy oqibatlar subyektini boshqaradi.

Demak, rag'batlantirish yordamida shaxs kerakli xulq-atvorga ega bo'lishi mumkin. Bixeviorizmida tarbiyada jazo va taqiqlarning o'ziga xos talqini taklif etiladi. Jazolar ekanmiz biz mohiyatan bolaga tajovuzkor xulq shaklini namoyon etamiz. Tabiiyki, bola uni o'zlashtiradi. Chunki, kuzatish natijasida tajovuzkor majburiylik va o'zini-o'zi tasdiqlashda qo'l kelishining guvohi bo'ladi. Bixeviorizmning kuchli tomoni ruhiyatni xulq-atvor orqali obyektiv o'rganishga qaytish bo'lsa, kuchsiz jihati – ong, iroda, fikr va ruhiyatning sotsial tabiati rolining susaytirilishi bo'ldi.

Gumanistik yo'nalish vakili A.N.Leont'ev shaxs tuzilishi va rivojlanishi kontseptsiyasini ilgari surarkan, faoliyat mohiyatini ta'riflaydi. Uning nazariyalari «shaxsiy mohiyat» tushunchasi asosiga qurilgan bo'lib, unga ko'ra, inson faoliyatining maqsadlari mavjud motivlarga nisbatan munosabatni aks ettiradi.

XULOSA

Xullas, sotsiologik nazariyalarga ko'ra, shaxsni tabiat mahsuli sifatida emas, balki sotsial munosabatlar mahsuli, jamiyat in'ikosi sifatida o'rganadi. Demak yoshlarning shaxs bo'lib shakllanib, jamiyatda ijtimoiy faol bo'lishi sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili hisoblanadi. Bu masala yoshlarning shaxs bo'lib shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirilishi, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilish, jamiyat bilan shaxs aloqalari, shaxs va guruhlar, shaxsning sotsial fe'l-atvori va ularni tartibga solish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'langan. Jamiyatda yoshlarning ehtiyojlari uning manfaatlari orqali namoyon bo'ladi. Manfaatlar esa maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning sotsial munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlar tizimida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida yoshlar ijtimoiy faoliyatining maqsadi, mazmuni va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi yoshlarning ijtimoiy faoliyati motivining oliy darajasi hisoblanadi.

Mahalliy olimlarimizdan E.Qodirov[5], I.Saifnazarov, F.Saifnazarova[6], V.Qo'chqorov[7] va boshqalar o'z tadqiqotlarida yoshlarning ijtimoiylashuvi, ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotdagi munosabatlari, huquqiy madaniyatini yuksaltirish kabi ayrim masalalarga alohida e'tibor qaratganlar. Shu uchun yoshlarga ijtimoiy hayotda to'laqonli faol bo'lishi, ishtirok etishi uchun davlat dasturlari, bir qator farmon va qarorlar joriy qilinib, jamiyatning bu siyosiy qatlamiga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, yoshlarni har tomonlama jamiyat koriga xizmat qiladigan inson qilib tarbiyalashda jamiyat ma'naviy va madaniy tizimining o'rnini ham beqiyos hisoblanadi. Ya'ni, jamiyatdagi keng miqyosli o'zgarishlar ma'naviyat, madaniyatdagi islohotlar bilan uzviy bog'liq.

Yuqoridagi nazariy fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining barcha muhim tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi. U nafaqat shaxsning jamiyat va jamoa ishlaridagi faol ishtiroki, balki ma'lum darajada siyosiy va axloqiy o'zlikni anglash tamoyillariga ham asoslanadi.

Bugungi kunda yoshlarni davr yukini zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol inson qilib voyaga yetkazish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yoshlarning zamon talablari asosida puxta bilim olishi, kasb-hunar egallashi, jamiyatda munosib o'rin topishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganligini hisobga olgan holda, quyidagilarni xulosa o'rnida keltirishimiz mumkin:

1. Keyingi yillarda yoshlarga doir davlat siyosati o'z mazmun-mohiyati jihatidan tamomila yangilandi. Xususan, yoshlarga oid davlat siyosatida inson manfaatlarini, huquqlarini to'la muhofazalash, yoshlarning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvini ta'minlash kabi demokratik insonparvar qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shuning uchun yoshlarga qaratilgan ijtimoiy siyosat jamiyat hayotini demokratlashtirish, modernizatsiya qilish va liberallashtirish bilan chambarchas bog'liq. Uni amalga oshirishda har bir davrning obyektiv holati, maqsadi va vazifalari uning mazmunini boyitish, takomillashtirishga xizmat qiladi.

2. O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim tadqiqot obyekti sifatida baholanib, aynan yoshlar mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-mafkuraviy yuksalishining intellektual potentsiali, davlatchilik rivojining o'ziga xos strategik boyligi, uning kuch va quvvati ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bugungi kunda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkiloti yoshlarning turli manfaatlarini ta'minlash, huquqiy savodxonligini yuksaltirish, sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, nogironlarni muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzi g'oyasini yoshlar ongiga singdirish, ekologik harakatlar olib borish, yoshlarga demokratik qadriyatlar asosida yashashni o'rgatish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, kasbiy mahoratlarini oshirish kabi o'nlab yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda.

3. Mamlakatimizda yoshlar harakati ham o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu strategik davr davlat va jamiyat hayotini tubdan modernizatsiya qilish, demokratlashtirish va liberalizatsiya qilish maqsadlari bilan yoshlar tashkilotlari va harakatlarining ish mazmunini moslashni talab qiladi. Yangi bosqichda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi:

— yoshlarning ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish ulardagi insonparvarlik fazilatini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq. Zero inson yuksak axloqiy fazilati orqali voqelikni qay darajada aks ettirishi va u to'g'risida fikr-mulohazalarini chuqurlashtirish asosida tobora o'z-o'zini chuqurroq va aniqroq kashf etib boradi. Ya'ni insonning "axloqiy fazilati" birinchi navbatda uning o'zligini anglashga qaratilgan bo'ladi. Insonning ma'naviy jihatdan yetukligi asosan insonparvarlik darajasi bilan belgilanadi;

- yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ulardagi daxldorlik hissini oshirish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan yoshlarimizda Vatanimiz taraqqiyoti va ravnaqi yo'lida faol ishtirok etish, xalqimizning o'tmishi va bugungi tarixini bilish, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar va ijtimoiy jarayonlarga befarq bo'lmaslik, siyosiy ongi va madaniyatini o'stirish, ularda jamiyat holatiga nisbatan xolisona tahliliy va tanqidiy munosabatini shakllantirish orqali Vatan ravnaqi va taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarda har doim faol bo'lishni shakllantirish davr talabi;

- davlat va jamiyat hayotini zamonaviylashtirish va erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yoshlarda tadbirkorlik va innovatorlikni yanada rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

4. Mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ular faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish, davlat strategik maqsadlariga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero davlat bosh islohotchi sifatida yoshlarga munosib, farovon hayot sharoitlarni yaratib berishga mas'ul. Shu bois, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish ularning bandligini ta'minlash bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz -T.: O'zbekiston, 2016. 14-6.

2. Аристотель. Никомахова этика. Сочинения. Том. 4.-Москва: "Мысль", 1983. - С.173.

3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: "G'ofur G'ulom nashriyoti", 1993. -160 b., Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-jild. –Toshkent: "Fan", 1968. -486 b., Ibn Sino. Изб. Филос. Произведения. –Москва: "Наука", 1980. –С. 478.

4. История социологии в Западной Европе и США. / Учебник для вузов. Отв.ред. Г. В. Осипов. – М.: Норма-Инфра-М, 2001. – 576 с.
5. Qodirov E. Yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishi. – Т.: ТДЮИ, 2010. – Б.112..
6. Saifnazarov I, Saifnazarova F, Yoshlar va oila vatan tayanchi. Т.: 2018. –Б. 85.
7. Qo‘chqorov V. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishning g‘oyaviy-siyosiy asoslari. Akademiya. -Т.: 2014. –Б. 185.
8. Юлбарсова, Х. А. (2021). РЕАЛИЗАЦИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *Восточно-европейский научный журнал*, (3-4 (67)), 36-40.
9. Юлбарсова, Х. А. (2021). ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Наука сегодня: вызовы и решения [Текст]: материалы меж*, 61.
10. Yulbarsova, H. (2021). IMPLEMENTATION OF AN EFFECTIVE PROCESS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN A FUTURE TEACHER. *East European Scientific Journal*, 4(3 (67)), 36-40.
11. Yulbarsova, K. A. (2020). SCIENTIFIC RESEARCH METHOD AND MEANS IN SOCIAL WORK. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 206-213.
12. Юлбарсова, Х. А. (2020). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК НЕОБХОДИМАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *Интернаука*, 23(152 часть 2), 54.
13. Юлбарсова, Х. А. (2016). Формирование коммуникативной компетенции будущих учителей в процессе их подготовки к технологии эффективного общения. *Молодой ученый*, (20), 756-757.
14. Abdinazarovich, R. D., Abdullajonovna, Y. K., Ahadjanovich, Q. A., Bakhromovich, G. A., & Juraevna, N. N. (2020). THE ROLE OF SOCIAL SERVICE IN THE PROTECTION OF HUMAN INTERESTS. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1263-1267.
15. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
16. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.

17. Юлбарсова, Х. А. (2016). Формирование коммуникативной компетенции будущих учителей в процессе их подготовки к технологии эффективного общения. *Молодой ученый*, (20), 756-757.